



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



“TURKIY DUNYONING OLIY ORDENI” VA “ALISHER NAVOIY XALQARO MUKOFOTI”NING TARIXIY AHAMIYATI

Dostonjon Tojiyev

Tayanch doktorant

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Sharqshunoslik instituti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Turkiy davlatlar tashkiloti, Turkiy tili davlatlar hamkorlik kengashi, “Naxichevan shartnomasi”, Turkiya, Ozarbayjon, Qozogʻiston va Qirgʻiziston, Turkmaniston, Oʻzbekiston, “Alisher Navoiy” xalqaro mukofoti, Istanbul sammiti, Shavkat Mirziyoyev, Chingiz Aytmatov, “Turkiy dunyoning oliy ordeni”, Vengriya, Adam Yunisov, Nursulton Nazarboyev, Ilhom Aliyev, “Turkiy taraqqiyot – 2040”, Rejep Tayyib Erdogʻan, Gurbanguli Berdimuhamedov, Yaqin Sharq masalasi, Qasim-Jomart Toʻqayev, Sadir Japarov.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy ildizlari bir, til va din jihatidan qardosh boʻlgan turkiy mamlakatlarning soʻnggi oʻttiz yillikdagi oʻzaro madaniy aloqalari, bu aloqalarning rivojida Turkiy Kengashning oʻrni ahamiyatli ekanligi, Turkiy davlatlar tashkiloti tuzilgach har tarafdin mustahkamlangan tashkilotning jahon hamjamiyatiga tobora integratsiyalashayotgani va bunda madaniy - maʼnaviy aloqalarning oʻrni beqiyos ekanligi xususida soʻz boradi. Jumladan, maqolada Turkiy dunyo nobeliga qiyoslanayotgan “Alisher Navoiy xalqaro mukofoti” va bir qator davlat rahbarlari taqdirlangan “Turkiy dunyoning oliy ordeni” haqida batafsil tarzda maʼlumot berilgan. Mukofotlarning taʼsis etilishi, bunga sabab boʻlgan omillar hamda ushbu mukofotlarga erishishdagi ketma-ketlik jarayonlari haqida ham maqolada yoritilgan. Ushbu ikki nufuzli mukofot haqida bayon etish barobarida turkiy dunyoning boshqa madaniy tadbirlari, turkiylarning mashhur shaxslari, xalq qalbida yashab kelayotgan ijodkorlarning yubiley-lari nishonlanishi haqida qarorlar qabul qilinishi hamda kelajakda bunday maʼnaviy - maʼrifiy anjumanlar sonini koʻpaytirish lozimligi xususida ham fikrlar keltirib oʻtilgan.

THE HISTORICAL SIGNIFICANCE OF THE "SUPREME ORDER OF THE TURKISH WORLD" AND THE "ALISHER NAVOIY INTERNATIONAL AWARD"

Dostonjon Tajiyev

Foundation PhD student

Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

In the name of Abu Rayhan Beruni

Institute of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Organization Turkic States, Cooperation of Turkic Speaking States “Nakhichevan agreement”, Turkey, Azerbaijan, Uzbekistan, Turkmenistan, Shavkat Mirziyoev, Chingiz Aitmatov, “The highest Order of the Turkic world”, Hungary, Adam Yunisov, Ilkham Aliev, “Turkish Development – 2040”, Rejep Tayib Erdogan, Gurbanguly Berdimuhamedov, the issue of the Middle East, Kasim-Jomart Tokaev, Sadyr Djaparov.

Abstract: In this article, the mutual cultural relations of the Turkic countries with the same historical roots, brothers in terms of language and religion in the last three decades, the importance of the role of the Turkic Council in the development of these relations, the strengthening of the organization from all sides to the world community after the establishment of the Organization of Turkic States it is mentioned that it is becoming more and more integrated and that the role of cultural and spiritual relations is incomparable in this. In particular, the article provides detailed information about the Alisher Navai International Award, which is compared to the Nobel Prize of the Turkish world, and the "Highest Order of the Turkish World", awarded to a number of state leaders. The article also covers the establishment of awards, the factors that caused it, and the sequential processes of achieving these awards. Along with the presentation of these two prestigious awards, decisions should be made on the celebration of other cultural events of the Turkish world, the anniversaries of famous Turks, artists living in the hearts of the people, and the need to increase the number of such spiritual and educational conferences in the future.

**ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ «ВЫСШЕГО ОРДЕНА ТУРЕЦКОГО МИРА» И
«МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРЕМИИ АЛИШЕРА НАВОЯ»**

Достонжон Таджиев

Аспирант Фонда

Академия наук Республики Узбекистан

Во имя Абу Райхана Беруни

Институт востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

Организация турецких государств, Совет по сотрудничеству Тюркских государств, «Нахичеванское соглашение», Турция, Азербайджан, Узбекистан, Туркменистан, Шавкат Мирзиёев, Чингиз Айтматов, «Высший орден турецкого мира», Адам Юнисов, Нурсултан Назарбаев, Илхам Алиев, «Тюркское развитие – 2040», Реджеп Тайиб Эрдоган, Гурбангулы Бердимухамедов, Проблемы Ближнего Востока, Касым-Жомарт Токаев, Садыр Жапаров.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются взаимные культурные связи тюркских стран, имеющих одни исторические корни, братьев по языку и религии за последние три десятилетия, значение роли Тюркского совета в развитии этих отношений, укрепление Мирового сообщества во всех направлениях после создания Организации Тюркских государств и отмечается, что оно становится все более интегрированным и что роль культурных и духовных связей в этом несопоставима. В частности, в статье представлена подробная информация о Международной премии Алишера Навои, которую сравнивают с Нобелевской премией тюркского мира, и «Высшем ордене тюркского мира», присужденном ряду государственных деятелей. В статье также рассматривается учреждение наград, факторы, которые привели к этому, и последовательные процессы, связанные с получением этих наград. Одновременно с разъяснением этих двух престижных наград следует принять решения о праздновании других культурных событий тюркского мира, юбилеев известных тюрков, деятелей искусства, живущих в сердцах людей, а также о необходимости увеличения количества подобных духовно-просветительских конференций в будущем.

KIRISH

Turkiy dunyoning birlashishiga bosh sababchi sifatida ko'rilayotgan Turkiy davlatlar tashkiloti yaqin yillar ichida ham shaklan, ham mazmunan rivojlanish jarayonida. Bu esa ushbu tashkilotning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi jarayonlarini oshirib, boshqa yirik xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik, do'stona munosabatlarning yangi bosqichga chiqishiga sabab bo'lib kelyapti. Eng muhim jihat – til va din yaqinligi har qaysi davrda xalqlarni jipslashtiradigan bosh omil bo'lgan. Shu jumladan, Turkiy davlatlar tashkiloti ham bugungi kunda jahon hamjamiyatining e'tiborida bo'lib, unga a'zo mamlakatlar tarixiy ildizlari birligi sababidan o'zaro iqtisodiy-siyosiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan bir-birlarini qo'llab kelayotgan tuzilmaga aylanib ulgurdi¹.

Tarixan olib qaraganda, 1992-yildan boshlab, turkiy tilli davlat rahbarlarining sammitlari o'tkazila boshlangandi. Mazkur davlatlar rahbarlari tashabbusi bilan 1993-yilda Turkiy tilli xalqlar madaniyati tashkiloti (TurkSoy) ta'sis etildi². Turkiy tilli davlatlar hamkorligida TurkPA (Turkiy tilli davlatlar parlament assambleyasi), Turkiy madaniyat va meros jamg'armasi, ilmiy tadqiqotlar uchun mo'ljallangan Turkiy akademiya singari qator tarkibiy tuzilmalar faoliyat ko'rsatib kelgan edi. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sifatida ilk bora bu tashkilot 2009-yil 3-oktabrda Ozarbayjonning Naxichevan shahrida tuzildi³. Tashkilotning huquqiy asosini tashkil etuvchi 22 moddadan iborat "Naxichevan shartnomasi" mazmuniga nazar tashlansa, eng avvalo, turkiy xalqlar o'rtasidagi tarixiy rishtalar, umumiy til, madaniyat va an'analardan kelib chiqib, har tomonlama hamkorlikka kirishish, bu munosabatlarni chuqurlashtirishga qaratilgani ko'rinib turadi. Mazkur hujjatda, tashkilotning maqsad va vazifalari, tuzilmasi, hamkorlik turlari, tashkilot tarkibidagi kengash va qo'mitalar, byudjet, imtiyozlar, xalqaro munosabatlar va nizolarni hal etish kabi qator masalalar keltirib o'tilgan.

Dastlab bu kengashning asoschilari va to'laqonli a'zolari Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'iziston mamlakatlari edi⁴. O'n yildan so'ng tashkilotga O'zbekiston rasman a'zo bo'lib kirdi⁵, Turkmaniston esa betaraflik maqomi sabab rasmiy a'zo bo'lmasada lekin doimiy ishtirokchiga aylandi. Natijada turkiy dunyoning bir butun bo'lib birlashish jarayoni yuzaga keldi. O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga qo'shilishini barcha a'zo mamlakatlar ijobiy munosabat bilan qabul qildilar. Rasmiy shaxslar hamda ekspertlar o'zbeklarning turkiylar tarixidagi o'rni, bugungi salohiyati va ahamiyatini davomiy e'tirof etadilar⁶.

Bu xalqaro tashkilotning asosiy maqsadi a'zo mamlakatlar o'rtasida azaliy qardoshlikni mustahkamlash barobarida jahon va mintaqaviy muammolar bo'yicha siyosiy maslahatlashuvlarni kuchaytirish, iqtisodiy va texnikaviy hamkorlikni, ilm-fan, san'at va madaniyat sohasida hamda Turkiy tilli dunyoning moddiy va ma'naviy madaniyatini asrash va yanada rivojlantirish borasida hamkorlikni yuqori saviyaga ko'tarishdan iboratdir⁷. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida o'zaro kelishilgan holda Turkiy dunyo adabiyoti, san'ati, ilm-fan va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan shoirlar, faylasuflar va davlat arboblarni xotirlash, ularga oid merosni ommalashtirish tadbirlarini tashkil etish bo'yicha tegishli topshiriqlar beriladi, qarorlar qabul qilinadi. Ushbu jarayonlarning amaliy ifodasi sifatida bir

¹ Назарова Г., Халилов Х. ва бошқ. Халқаро иқтисодий интеграция. Тошкент: Тафаккур, 2010. Б. 67.

² [Special Edition of World of Diplomacy Journal of the Ministry of Foreign Affairs of Azerbaijan dedicated to the Turkic Council](#). Baku – 2020. P. 36-37.

³ [Special Publication – Turkic Council: 10th Anniversary of the Nakhchivan Agreement](#). Baku – 2019. P. 49.

⁴ Azərbaycan cumhuriyeti disisleri bakanliginin yayimi diplomasi dunyasi dergisi turk konseyi ozel sayisi. № 56. Baku – 2020. P. 104.

⁵ Туркий кенгаш қароргоҳида Ўзбекистон байроғи ҳилпирайди. 14.10.2019.

<https://uza.uz/uz/posts/turkiy-kengash-arorgo-ida-zbekiston-bayro-i-ilpiraydi-14-10-2019>

⁶ Turkiy davlatlar tashkiloti qanday tashkilot va u nima uchun kerak? 08.11.2022. <https://darvo.uz/2022/11/08/turkiy-davlatlar-tashkiloti-qanday-tashkilot-va-u-nima-uchun-kerak/>

⁷ Жўраев Қ. Ўзбекистон – Туркия: ҳамкорликнинг янги саҳифаси. № 44, 2017 <http://www.adolatgzt.uz/policy/munosabat1/4890>

qator turkiy dunyo atoqli shaxslarining yubileylarini nishonlandi. Jumladan, 2016-yil "Yusuf Xos Hojib yili" deya e'lon qilindi va tavalludining 1000 yilligi⁸ nishonlandi. 2021-yilda Ozarbayjonda "Nizomiy Ganjaviy yili" deya e'lon qilinib, Ganjaviy tavalludining 880 yilligi⁹ nishonlangan edi. Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi¹⁰ bo'yicha O'zbekiston Prezidentining qarori¹¹ imzolangan va yubiley 2021-yilda keng miqyosda nishonlandi. Jambil Jabayev tavalludining 175 yilligi¹², Alixon Bo'keyxon tavalludining 155 yilligi¹³, Husayn Karasayev tavalludining 120 yilligi¹⁴ va Yunus Emroning yubileyi¹⁵ ham nishonlandi.

Bu davlatlarning til, din, madaniyat va tarixan yaqinligi ularning bir tashkilot bayrog'i ostida birlashishiga hamda har tomonlama sheriklik yordamini berishga shay ekanligini ko'rsatdi. Ushbu tashkilotning Kengash deb nomlangan vaqtida bo'lib o'tgan barcha sammitlarida tarixan tub ildizlari yaqin bo'lgan xalqlarning yanada yaqin munosabat o'rnatishi, ijtimoiy-siyosiy masalalarda o'zaro hamkorlikning har taraflama o'sishiga erishib borildi.

Turkiy dunyo doirasida ilmiy va madaniy hamkorlik oxirgi besh yilda anchayin o'sishdi. Har bir sammit doirasida fan va ta'lim, madaniyat va san'at rivoji borasidagi qarorlar doimiy qabul qilinishi ham hamkorlik darajasini oshirishga xizmat qilgan. Madaniy merosni avlodlarga yetkazishda tarixiy shaxslarning o'rni ahamiyatlidir. Bugungi kunda turkiy dunyo nobeli deyishga loyiq bo'lgan "Alisher Navoiy" xalqaro mukofoti ham shu boradagi qadamlardan biridir. 2021-yilning 12-noyabr kuni yuksak bir qaror qabul qilingani bilan tarixda qoldi. Shu kuni Turkiyada bo'lib o'tayotgan sammitda Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etish to'g'risidagi qaror qabul qilindi¹⁶.

2021-yilning fevralida ulug' mutaffakir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan "Dunyo sharqshunoslari talqinida Alisher Navoiy" mavzusidagi ikki kunlik xalqaro konferensiyaning o'tkazilishi¹⁷ ham allomaga bo'lgan hurmat umumturkiy dunyoda salmoqli o'ringa egaligini ko'rsatdi. Xalqaro anjumanda O'zbekiston, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkiya, Vengriya, Tojikiston, Hindiston, Pokiston, Misr, Eron va Afg'oniston kabi 15 mamalakatning 60 dan ortiqroq universitetlarida ilmiy faoliyat olib borayotgan soha mutaxassisleri ishtirok etishdi. Ishtirokchilar Navoiyning serqirra ijodi nafaqat madaniyat va adabiyot, balki siyosat, davlat boshqaruvi, fan va ta'lim sohalariga ham o'ziga xos tarzda ta'sir qilganini ta'kidladilar.

⁸ 2016 Yusuf Has Hacip Yılı. 21.02.2016. <https://www.turksoy.org/haberler/2016-02-21-2016-yusuf-has-hacip-yili>

⁹ Nizami Gencevi doğumunun 880'inci yılında Bakü'de anıldı. 07.09.2021. <https://www.trthaber.com/haber/kultur-sanat/nizami-gencevi-dogumunun-880inci-yilinda-bakude-anildi>

¹⁰ 2021 yilda – alisher navoiy tavalludining 580 yilligi. 22.10.2020.

<https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda-yangi/2021-yilda-alisher-navoiy-tavalludining-580-yilligi>

¹¹ Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580-yilini keng nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 19.10.2020.

<https://uza.uz/oz/posts/buyuk-shoir-va-mutafakkir-alisher-navoiy-tavalludining-580-y-19-10-2020>

¹² Doğumunun 175. Yılında Jambyl Jabayev Жамбыл Жабайұлы (1846-1945). 2021. https://www.academia.edu/53417734/Doğumunun_175_Yılında_Jambyl_Jabayev_Жамбыл_Жабайұлы_1846_1945

¹³ Alaş'ın Alihan'ı Doğumunun 150. Yılında Alihan Bökeyhan ve Türk Dünyası Aydınları Uluslararası Konferansı gerçekleştirildi... 16.03.2016.

<https://farabi.hacibayram.edu.tr/turkiyat/alsin-alihan-dogumunun-150-yilinda-alihan-bokeyhan-ve-turk-dunyasi-aydinlari-uluslararasi-konferansi-gerceklestirildi>

¹⁴ Son dakika... Cumhurbaşkanı Erdoğan duyurdu: Ramazan Bayramı'ndan sonra ziyaret edeceğiz. 31.03.2021.

<https://www.milliyet.com.tr/siyaset/son-dakika-cumhurbaskani-erdogandan-onemli-aciklamalar-6470255>

¹⁵ 2021 Yılı, "Yunus Emre ve Türkçe Yılı" Olarak İlan Edildi. 30.01.2021.

<https://www.tdk.gov.tr/icerik/basindan/2021-yili-yunus-emre-ve-turkce-yili-olarak-ilan-edildi/>

¹⁶ Turkiy kengash Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etishga qaror qildi. 13.11.2021.

<https://xabardor.uz/uz/post/alisher-navoiy-nomidagi-xalqaro-mukofot-rasman-tasis-etildi>

¹⁷ Türk Konseyi Sekreteryası, "Dünya oryantalistleri bağlamında Ali Şir Nevai" başlıklı uluslararası bilimsel konferansa katıldı. 05.02.2021.

https://www.turkicstates.org/tr/haberler/turk-konseyi-sekretaryasi-dunya-oryantalistleri-baglaminde-ali-sir-nevai-baslikli-uluslararasi-bilimsel-konferansa-katildi_2168

Umumiy olganda, Markaziy Osiyo va Kavkazda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilgan Tashkilot umumintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash tarafdoridir. Barqarorlikni mustahkamlash, hamkorlikni oshirish va umumiy rivojlanish salohiyatini yuksaltirib berish uchun tashqi siyosatda o'zaro birdamlik muhimdir. Kengash nomi 2021-yil 12-noyabrda Istanbulda bo'lib o'tgan sakkizinchi sammitda rasman o'zgardi¹⁸. Sammit yig'ilishida qabul qilingan qarorga muvofiq Turkiy davlatlar tashkiloti yuzaga keldi.

Tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlari, mazkur yig'ilish yakunida imzolagan Deklaratsiyaning 74-moddasida: "Turk dunyosi ittifoqiga qo'shgan hissasi uchun Turkiy davlatlar hamkorlik kengashi Alisher Navoiy xalqaro mukofotini ta'asis etadi", jumlasini kiritilgan. Sammit ishtirokchilari bundan juda mamnunliklarini ham ta'kidlab o'tishdi.

Tashkilotning videoanjuman ko'rinishidagi 2021-yil 31-martda bo'lib o'tgan norasmiy sammitida buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning turkiy dunyo ma'naviy-marifiy hayotiga beqiyos qo'shgan hissasini inobatga olgan holda fan, ta'lim, adabiyot, san'at, ijtimoiy sohalaridagi yutuqlar hamda turkiy dunyo birligini mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlarni rag'batlantirish maqsadida Turkiy kengash doirasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'asis qilish taklifi bildirilgandi¹⁹ hamda tashabbus sammit ishtirokchilari tomonidan o'sha damda qo'llab-quvvatlandi. Norasmiy sammitdan ham xulosa qilish mumkinki, mustahkam tarixiy rishtalar, mushtarak til, madaniy-ma'naviy qadriyatlar asosida shakllangan Tashkilot mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmiga aylanib borayotganini shubhasizdir.

Turkiy kengashning 8-sammitida nutq so'zlagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sammitning yuqoridagi qarorni qabul qilishidan minnatdor ekanini alohida ta'kidlab, bu borada: "Bugungi sammitimizda Turkiy dunyo birligiga salmoqli hissa qo'shgan ulug' mutafakkir va davlat arbobi Mir Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'asis etish haqidagi qaror qabul qilinishi munosabati bilan barchangizga yana bir bor minnatdorchilik bildiraman. Turkiy dunyoning buyuk vakillari umumbashariy madaniyat va sivilizatsiya taraqqiyotiga qanday ulkan hissa qo'shgani hammamizga ma'lum"²⁰, – deya ta'kidlagandi.

Turkiy kengash doirasida berilishi belgilangan ushbu xalqaro mukofot fan, ta'lim, adabiyot, san'at, ijtimoiy sohalaridagi yutuqlar hamda turkiy dunyo birligini mustahkamlash yo'lidagi harakat va intilishlarni rag'batlantirish maqsadida tashkil etildi.

Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofoti tizimini yaratishda, dunyoga mashhur mukofot tizimlaridagi holatlarni hisobga olgan holda sinchkovlik bilan ish olib borish mukofotning global miqyosda nufuzli mavqega ega bo'lishini ta'minlab berishi shubhasiz. Shu sababdan, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu mukofot tizimini tayyorlash jarayonida Nobel va Pulitser kabi dunyoga mashhur mukofotlarni berish jarayonlarini e'tiborga olish kerak²¹. Boshqa tomondan esa turkiy tilda asar taqdim etgan, turkiy davlatlarda ilmiy tadqiqot olib borgan va butun dunyo tinchligiga xizmat qilayotgan insonlarga Alisher Navoiy xalqaro mukofotini berish orqali ham bu tadqiqotlarni rag'batlantirish, ham turkiy tilda mushtarak qadriyatlarining mustahkamlanishiga imkoniyat yaratish mumkin bo'ladi.

O'tgan bir necha asr davomida buyuk allomaning asarlari bugungi kungacha yetib kelgan. Navoiy nomi O'zbekiston tarixida, ayniqsa adabiyotida bosh ramz hisoblanadi. Turkiy dunyoda Alisher Navoiy nomidagi mukofotning bo'lishi bu – O'zbekiston va Alisher Navoiyning ahamiyatini ko'rsatadi. Bu qarorning barcha a'zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi ham Alisher Navoiy va uning ijodi turkiy xalqlar uchun umumiy qadriyat ekanligidan dalolat beradi.

¹⁸ Turkiy davlatlar tashkiloti qanday tashkilot va u nima uchun kerak? 08.11.2022. <https://daryo.uz/2022/11/08/turkiy-davlatlar-tashkiloti-qanday-tashkilot-va-u-nima-uchun-kerak/>

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Turkiy kengashning norasmiy sammitida ishtirok etdi. 31.03.2021. <https://president.uz/oz/lists/view/4271>

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Туркий тили давлатлар ҳамкорлик кенгаши саммитидаги нутқи. 13.11.2021. <https://president.uz/uz/lists/view/4758>

²¹ Akalin Ahmet. Türk devletleri teşkilati "Ali Şir Nevai uluslararası ödülü". The materials of the international scientific-theoretical conference on the theme «Alisher Navoi and the XXI century». Toshkent – 2022. S. 365.

Ushbu mukofot bilan taqdirlanish quyidagicha bo'ladi:

Mukofotlar adabiyot, she'riyat, musiqa, davlat boshqaruvi kabi Amir Alisher Navoiy faoliyatida ajralib turadigan sohalarda berilishi mumkin. Jumladan, "Navoiy nomidagi Adabiyot mukofoti", "Navoiy nomidagi She'riyat mukofoti", "Navoiy nomidagi Musiqa mukofoti", "Navoiy nomidagi Muhim Davlat xizmatchisi" kabilar.

O'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, uyg'ur, o'g'uz yoki onado'li turkiychasida turkiy tilga hissa qo'shgan yozuvchilar, akademiklar, musiqachilar, davlat arboblari (davlat xizmatchilari) yoki jurnalistlar sohasidan qat'iy nazar taqdirlanishlari mumkin.

Mukofot faqatgina asli turkiy davlatlar fuqarosi bo'lgan odamga berilishi shart emas. Turkiy dunyoning mavjud tillarida yoki chet tilida ham ijod etadigan hamda insoniyatning umumiy qadriyatlariga hissa qo'shadigan insonlarga berilishi mumkin.

Mukofot g'oliblarini xolisona aniqlash uchun Turkiy dunyoning turli burchaklaridan kelgan Navoiyshunos mutaxassis olimlardan iborat mustaqil komissiya tuzilishi mumkin.

Mustaqil qo'mita tomonidan mukofotga loyiq deb topilgan shaxslar 9-fevral kuni O'zbekiston poytaxtida joylashgan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat til va adabiyot universitetida, Navoiy tug'ilgan Hirot shahrida yoki O'zbekistonning Navoiy viloyatida bo'lib o'tadigan tantanali marosim vaqtida (joy vaziyatga ko'ra tanlanadi) taqdirlanishi mumkin.

Mukofot g'oliblarining asarlari barcha turkiy tillarda chop etilishi ta'minlanishi ham mumkin.

Xalqaro mukofot sohiblari g'olib bo'lgan yillarida bo'lib o'tadigan Turk Davlatlari Tashkiloti va TurkSOY kabi muassasalarning tadbirlarida mehmon sifatida qatnashishlari mumkin²².

O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan ta'sis etilgan "Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot"ning ilk sohibi – turkiy dunyo ravnaqiga qo'shgan hissasi uchun buyuk adib, jamoat arbobi, ulug' gumanist Chingiz Aytmatov bo'ldi. "Buyuk adib va jamoat arbobi, ulug' gumanist, marhum Chingiz Aytmatov barcha xalqlarimizning chin do'sti, turkiy tarix va madaniyatni butun dunyoga tarannum etgan betakror ijodkor, o'lmas asarlari orqali azaliy urf-odat va olijanob qadriyatlarimizni jahondagi millionlab insonlar qalbiga muhrlay olgan mutafakkir shaxs edi²³", – Shavkat Mirziyoyev Chingiz Aytmatovga berilgan "Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot"ni Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovga topshirishda shu so'zlarni ta'kidladi.

Ushbu mukofot bundan keyin har yili berib borilishi, unga munosib bo'lgan shaxslarning turkiy dunyo ravnaqiga qo'shadigan hissasi ham ahamiyatli bo'lishi haqida xulosa qilindi. Bu jarayonlar esa Tashkilot ravnaqi bilan parallel tarzda olib borilishi aniq.

Shu qatorda yana bir yirik mukofot – "Turkiy dunyoning oliy ordeni" haqida ham to'xtalib o'tish lozim. "Turkiy dunyoning oliy ordeni" Turkiy davlatlar tashkilotining eng oliy ordeni hisoblanadi. Orden bir vaqtning o'zida a'zo mamlakatlardan birining rahbari yoki hukumat rahbari bo'lgan tashkilot raisi tomonidan berilishi belgilangan bo'lsa-da, asosan tashkilot sammitiga rais bo'lgan davlat rahbari tomonidan mukofotlangan shaxsga topshiriladi. Turkiy dunyoning barqarorligi va birligi ta'minlangan 2019-yilda ushbu orden ta'sis etilgan (O'zbekistonning rasmiy a'zoliqi, Turkmaniston va Vengriyaning kuzatuvchi maqomini olishi turkiy birlikka ishoradir). Oliy darajali orden shaxs tomonidan ko'rsatilgan beqiyos xizmatlarini e'tirof etish maqsadida topshiriladi.

"Turkiy dunyoning oliy ordeni" maxsus buyurtma bilan ozarbayjonlik soha mutaxassisi Adam Yunisov tomonidan yaratilgan bo'lib, orden butunlay qo'l mehnati asosida ishlangan. Orden dizayni quyidagicha: Turkiy davlatlar gerbi atrofida katta doira aylanasida 6 turkiy davlatni ifodalovchi 6 dona sakkizburchak yulduzlardan iborat bo'lib, sakkiz daraja oltin va olmos turkiy dunyoning oliy ordenini tashkil qiladi. Har bir olti yulduzning tepasida olmosi bor bo'lib, bu Turkiy davlatlarning porloq kelajagi

²² Türk Konseyi (2021), Türk Devletleri Teşkilatı Sekizinci Zirve Bildirisi, İstanbul.

<https://www.hurriyet.com.tr/gundem/ilber-ortaylidan-nobel-elestirisi-hicbir-anlamioilmaz-41397613> E.24.01.2022

²³ Chingiz Aytmatov Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotining ilk sohibi bo'ldi. 11.11.2022.

<https://uzreport.news/politics/chingiz-aytmator-alisher-navoiy-nomidagi-xalqaro-mukofotining-ilk-sohibi-boldi>

hamda boy madaniy tarixini anglatadi. Oliy ordenni tayyorlash mobaynida umumiy 400 gramm oltin ishlatilgan²⁴. Yana qo‘shimcha tarzda katta olmoslar turkiy dunyo yoritayotgan yorqinlik ramzi sifatida 18 ta kichik olmos bilan o‘ralgan. Markazda joylashgan olti burchakli yulduz turkiy dunyoning qudratini ifodalashi maqsad qilingan. Ordenning o‘rtasida, shuningdek, qo‘lda ishlangan tashkilotning nishoni ham bor²⁵. Umumiy olganda, oliy ordenda turkiy dunyoning qiyofasini ramziy tasvirlashga harakat qilingan.

Qozog‘istonning Birinchi Prezidenti, Turkiy dunyoning faxriy raisiga aylangan Nursulton Nazarboyev 2019-yil 14-15 – oktabr kunlari Bokuda bo‘lib o‘tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining yubiley 10 yillik sammitida “Turkiy dunyoning oliy ordeni” bilan taqdirlandi²⁶. Oliy orden ilk bora ushbu yubiley sammitda munosib egasiga topshirildi. Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev mukofotni topshirar ekan Nursulton Nazarboyevning qator yillar davomida Turkiy Kengash faoliyatidagi ishtiroki uchun minnatdorlik bildirib, uning ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashga qo‘shgan hissasini ham alohida ta’kidladi²⁷. Turkiy dunyoning umrbod faxriy raisi sifatida Nazarboyev – “Turkiy taraqqiyot – 2040” dasturini ishlab chiqish va turkiy tillarda so‘zlashuvchi mamlakatlar kengashi nomini o‘zgartirish taklifini ilgari surgan edi. “Menimcha kengashni xalqaro tashkilot darajasiga chiqarish vaqti keldi. Shu sababli kengashni Turk davlatlari xalqaro tashkiloti nomiga o‘zgartirish maqsadga muvofiq”²⁸, – deya ta’kidlaganidan so‘ng, bu jarayon uzoq kuttirmay 2021-yilda o‘z amaliy natijasini – Turkiy davlatlar tashkiloti nomini jahonga namoyon qildi.

2021-yilda Istanbul yaqinidagi “Demokratiya va erkinlik” orolida Turkiy tilli davlatlar kengashining VIII sammitida tashkilotga a‘zo davlat rahbarlarining yakdil qarori bilan Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev²⁹ “Turkiy dunyoning oliy ordeni” bilan taqdirlandi. Mukofotni Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an shaxsan o‘zi topshiradi. Ozarbayjon hududini ozod qilish, mamlakat yaxlitligini ta‘minlash va turkiy birlikni mustahkamlashga qo‘shgan hissasi uchun³⁰ Ilhom Aliyev ushbu oliy mukofotga loyiq ko‘rilgan edi.

2022-yil Turkiy dunyo uchun unutilmas yil hisoblanadi. Chunki shu yili Turkiy Kengashning 9-sammiti, rasmiy tarzda Turkiy davlatlar tashkiloti kengashining 1-sammiti Samarqand shahrida bo‘lib o‘tdi³¹. Aynan shu sammitda birvarakayiga ikki inson – Rejep Tayyip Erdog‘an va Gurbanguli Berdimuhamedov “Turkiy dunyoning oliy ordeni”ga munosib ko‘rildilar³². O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shaxsan ularni qutlab mukofotlarni topshirdi. Turkiya yetakchisiga ordenni topshirarkan: “Taqdim etilayotgan yuksak orden turkiy oilamiz jipsligi va ahilligini, uning yanada hamjihatligini kuchaytirish borasidagi xizmatlaringizning amaliy e‘tirofi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman”³³, deya O‘zbekiston rahbari alohida ta’kidladi.

²⁴ Description of the Supreme Order of Turkic world. <https://www.behance.net/gallery/86918425/Supreme-Order-of-Turkic-World>

²⁵ Description of the Supreme Order of Turkic world. <https://www.behance.net/gallery/86918425/Supreme-Order-of-Turkic-World>

²⁶ Нұрсұлтан Назарбаев Түркі әлемінің Жоғарғы орденімен марапатталды. 15.10.2019. https://assembly.kz/news/n-rs-ltan-nazarbaev-t-rki-lemini-zho-ary-ordenimen-marapataldy/?sphrase_id=24616864

²⁷ Nursultan Nazarbayev awarded Supreme Order of the Turkic World. 15.10.2019. <https://assembly.kz/en/news/nursultan-nazarbayev-awarded-supreme-order-of-the-turkic-world/>

²⁸ Nursulton Nazarboyevga Bokudagi sammitda Turk dunyosining oliy ordeni topshirildi. 16.10.2019. <https://daryo.uz/2019/10/16/nursulton-nazarboyevga-bokudagi-sammitda-turk-dunyosining-oliy-ordeni-topshirildi>

²⁹ <https://turkicstates.org/assets/pdf/haaberler/press-release-of-secretariat-of-the-organization-of-turkic-states-2399-102.pdf>

³⁰ Ilhom Aliyev turkiy dunyoning Oliy ordeni bilan mukofotlandi. 12.11.2021. <https://perepost.uz/oz/news/95176>

³¹ Samarqand yana diqqat markazida: Chegaralar daxlsizligi va ichki ishlarga aralashmaslikka asoslangan tashkilot sammiti. 10.11.2022. <https://kun.uz/uz/news/2022/11/10/samarqand-yana-diqqat-markazida-chegaralar-daxlsizligi-va-ichki-ishlarga-aralashmaslikka-asoslangan-tashkilot-sammiti>

³² Erdog‘an va Berdimuhamedov «Turkiy dunyoning oliy ordeni» bilan mukofotlandi. 11.11.2022. <https://zamon.uz/detail/erdogan-va-berdimuhamedov-turkiy-dunyoning-oliy-ordeni-bilan-mukofotlandi-eng-dolzarb>

³³ Erdog‘an va Berdimuhamedov «Turkiy dunyoning oliy ordeni» bilan mukofotlandi. 11.11.2022. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/11/orden/>

O'zbekiston prezidenti "Turkiy dunyoning oliy ordeni"ni Turkmaniston Milliy kengashi Xalq maslahati raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga shaxsan topshirishdan faxrlanishini bildirib, quyidagilarni alohida ta'kidladi: "Muhtaram Gurbanguli Malikguliyevich Berdimuhamedov Janobi Oliy lari o'zining ko'p qirrali faoliyati, qimmatli ilmiy-ma'rifiy asarlari bilan keng jamoatchilik e'tiboriga sazovor bo'lib, ayniqsa yosh avlod tarbiyasiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini alohida ta'kidlash menga mamnuniyat bag'ishlaydi"³⁴. Berdimuhamedov ordenni "Turkman xalqiga berilgan mukofot", deya atagani ham bejizga emas.

2023-yilning noyabrida Turkiy davlatlar tashkiloti kengashining 10-sammiti Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tdi. Bu sammit dunyoda jiddiy o'zgarishlar, suronli voqealar davom etayotgan kunlarda bo'lib o'tdi. Ukraina inqirozi, Yaqin Sharqda davom etayotgan yirik urush fonida Turkiy davlatlar rahbarlari yakdil tarzda o'z pozitsiyalarini bildirishdi. Jumladan, Falastin xalqining o'z davlatiga ega bo'lishi kerakligi xususidagi masala kun tartibida bosh o'rinni oldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga turkiy xalqlar oilasining birligini mustahkamlashga, turkiy mamlakatlarning manfaatlari va qarashlarini xalqaro maydonda faol ilgari surishga qo'shgan ulkan hissasi uchun yuksak mukofot – "Turkiy dunyoning oliy ordeni" tantanali tarzda topshirildi³⁵. Qozog'iston Prezidenti Qasim-Jomart To'qayev barchaning ko'z o'ngida yuksak mukofotni O'zbekiston rahbariga topshirdi.

Tashkilotning 2024-yildagi sammiti Qirg'izistonda bo'lib o'tishi belgilandi. Hozirda bir yil oldindan quyidagicha tahlil qilish mumkin. Bishkekda 11-sammitda katta ehtimol bilan "Turkiy dunyoning oliy ordeni" bilan qozoq elining jo'mard rahbari Qasim-Jomart To'qayev taqdirlanishi mumkin hamda mukofotni topshiruvchi inson Sadir Japarovning o'zi bo'ladi. Kelgusi yil noyabrga qadar rahbariyatlar o'zgarishsiz tursa ehtimoliy prognoz o'zini oqlashi yuqori.

2016-yildan boshlab Markaziy Osiyo va turkiy dunyo bilan iliqlashgan munosabatlar bugun o'z mevasini bermoqda. Turkiy dunyoning nufuzi hamda salohiyati bugun har qachongidan ko'ra yuksalib bormoqda. O'zbekiston 2019-yilda TDTning rasmiy a'zosiga aylangandan buyon turkiy mamlakatlar o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va ko'p qirrali hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan 50 dan ortiq taklif va tashabbuslarni ilgari surgani ham ahamiyatga molikdir.

O'zbekiston tashkilotga raislik qilgan davrda 100 dan ortiq tadbirlar o'tkazilib, amaliy hamkorlikning yangi samarali mexanizmlari yaratildi hamda nufuzli global va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin sheriklik aloqalari mustahkam tarzda yo'lga qo'yildi.

Turkiy dunyo davlatlari xalqaro maydonda barcha davlatlar bilan ko'p qirrali, o'zaro manfaatli, ilmiy-madaniy bog'liqlik asosidagi aloqalarni izchil kengaytirishmoqda, strategik sheriklik munosabatlari o'rnatilib, savdo hajmlari ham shunga mos tarzda ortib bormoqda. Xulosa qilib aytganda turkiy dunyo bugungi tahlikali davrda tanlagan yo'lidan og'ishmay harakat qilishi va har tomonlama ilmiy-madaniy, ijtimoiy-gumanitar hamda siyosiy-huquqiy jihatdan birlashishi lozimdir.

Jahon mamlakatlarida siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy jabhalarda integratsiya va globallasuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda dunyo mamlakatlarining asosiy rivojlanish tendensiya hamda yo'nalishlarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon siyosati va iqtisodiyotida integratsion jarayonlarning rivojlanish alomatlari o'zgarib borayotgan bir davrda O'zbekiston Respublikasi ham jahon

³⁴ Erdog'an va Berdimuhamedov "Turkiy dunyoning oliy ordeni" bilan mukofotlandi. 11.11.2022. <https://oz.sputniknews.uz/20221111/erdogan-va-berdimuhamedov-turkiy-dunyoning-oliy-ordeni-bilan-mukofotlandi-29894756.html>

³⁵ Mirziyoyev "Turkiy dunyo oliy ordeni" bilan mukofotlandi. 03.11.2023. <https://qalampir.uz/uz/news/mirziyeev-turkiy-dunyo-oliy-ordeni-mukofotlandi-92494>

hamjamiyatiga chuqur integratsiyalashib, ushbu mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi munosabatlarini tobora kengaytirib borish harakatini jadallashtirgan. Jahonning yirik integratsion markazlari, shu qatorda, amalda mamlakatning azaliy hamkorlari bo'lgan davlatlar rivojlanishining ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganishdagi yondashuvlar respublika iqtisodiyotida, siyosiy-ijtimoiy aloqalarida muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ushbu tashkilotning barcha a'zo davlatlari o'zaro qardosh xalqlar sifatida azaliy do'stlik aloqalarini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish strategiyalari mintaqa va jahonda tinchlik, barqarorlik hamda hamkorlikni ta'minlash yo'lida muhim ahamiyat kasb etishini dunyo afkor ommasiga namoyon etib kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Назарова Г., Халилов Х. ва бошқ. Халқаро иқтисодий интеграция. Тошкент: Тафаккур, 2010. Б. 67.
2. [Special Edition of World of Diplomacy Journal of the Ministry of Foreign Affairs of Azerbaijan dedicated to the Turkic Council](#). Baku – 2020. P. 36-37.
3. [Special Publication – Turkic Council: 10th Anniversary of the Nakhchivan Agreement](#). Baku – 2019. P. 49.
4. Azərbaycan cumhuriyeti disisleri bakanliginin yayini diplomasi dunyasi dergisi turk konseyi ozel sayisi. № 56. Baku – 2020. P. 104.
5. Туркий кенгаш қароргоҳида Ўзбекистон байроғи ҳилпирайди. 14.10.2019. <https://uza.uz/uz/posts/turkiy-kengash-arorgo-ida-zbekiston-bayro-i-ilpiraydi-14-10-2019>
6. Turkiy davlatlar tashkiloti qanday tashkilot va u nima uchun kerak? 08.11.2022. <https://daryo.uz/2022/11/08/turkiy-davlatlar-tashkiloti-qanday-tashkilot-va-u-nima-uchun-kerak/>
7. Жўраев Қ. Ўзбекистон – Туркия: ҳамкорликнинг янги саҳифаси. № 44, 2017 <http://www.adolatgz.uz/policy/munosabat1/4890>
8. 2016 Yusuf Has Hacıp Yılı. 21.02.2016. <https://www.turksoy.org/haberler/2016-02-21-2016-yusuf-has-hacip-yili>
9. Nizami Gencevi doğumunun 880'inci yılında Bakü'de anıldı. 07.09.2021. <https://www.trthaber.com/haber/kultur-sanat/nizami-gencevi-dogumunun-880inci-yilinda-bakude-anildi> 2021 yilda – alisher navoiy tavalludining 580 yilligi. 22.10.2020.
10. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/2021_yilda_-_alisher_navoiy_tavalludining_580_yilligi
11. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580-yilligini keng nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 19.10.2020. <https://uza.uz/uz/posts/buyuk-shoir-va-mutafakkir-alisher-navoiy-tavalludining-580-y-19-10-2020>
12. Doğumunun 175. Yılında Jambyl Jabayev Жамбыл Жабайұлы (1846-1945). 2021. https://www.academia.edu/53417734/Doğumunun_175_Yılında_Jambyl_Jabayev_Жамбыл_Жабайұлы_1846_1945
13. Alaş'ın Alihan'ı Doğumunun 150. Yılında Alihan Bökeyhan ve Türk Dünyası Aydınları Uluslararası Konferansı gerçekleştirildi... 16.03.2016. <https://farabi.hacibayram.edu.tr/turkiyat/alasin-alihani-dogumunun-150-yilinda-alihan-bokeyhan-ve-turk-dunyasi-aydinlari-uluslararasi-konferansi-gerceklestirildi>
14. Son dakika... Cumhurbaşkanı Erdoğan duyurdu: Ramazan Bayramı'ndan sonra ziyaret edeceğiz. 31.03.2021. <https://www.milliyet.com.tr/siyaset/son-dakika-cumhurbaskani-erdogandan-onemli-aciklamalar-6470255>
15. 2021 Yılı, “Yunus Emre ve Türkçe Yılı” Olarak İlan Edildi. 30.01.2021. <https://www.tdk.gov.tr/icerik/basindan/2021-yili-yunus-emre-ve-turkce-yili-olarak-ilan-edildi/>
16. Turkiy kengash Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etishga qaror qildi. 13.11.2021. <https://xabardor.uz/uz/post/alisher-navoiy-nomidagi-xalqaro-mukofot-rasman-ta-sis-etildi>
17. Türk Konseyi Sekreteryası, "Dünya oryantalistleri bağlamında Ali Şir Nevai" başlıklı uluslararası bilimsel konferansa katıldı. 05.02.2021. https://www.turkicstates.org/tr/haberler/turk-konseyi-sekretaryasi-dunya-oryantalistleri-baglaminda-ali-sir-nevai-baslikli-uluslararasi-bilimsel-konferansa-katildi_2168

18. Turkiy davlatlar tashkiloti qanday tashkilot va u nima uchun kerak? 08.11.2022. <https://daryo.uz/2022/11/08/turkiy-davlatlar-tashkiloti-qanday-tashkilot-va-u-nima-uchun-kerak/>
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Turkiy kengashning norasmiy sammitida ishtirok etdi. 31.03.2021. <https://president.uz/oz/lists/view/4271>
20. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши саммитидаги нутқи. 13.11.2021. <https://president.uz/uz/lists/view/4758>
21. Akalin Ahmet. Türk devletleri teşkilati “Ali Şir Nevai uluslararası ödülü”. The materials of the international scientific-theoretical conference on the theme «Alisher Navoi and the XXI century». Toshkent – 2022. S. 365. Türk Konseyi (2021), Türk Devletleri Teşkilatı Sekizinci Zirve Bildirisi, İstanbul. <https://www.hurriyet.com.tr/gundem/ilber-ortaylidan-nobel-elestirisi-hicbir-anlamiolmaz-41397613> E.24.01.2022
22. Chingiz Aytmatov Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotining ilk sohibi bo'ldi. 11.11.2022. <https://uzreport.news/politics/chingiz-aytmatov-alisher-navoiy-nomidagi-xalqaro-mukofotining-ilk-sohibi-boldi>Description of the Supreme Order of Turkic world. <https://www.behance.net/gallery/86918425/Supreme-Order-of-Turkic-World>
23. Нұрсұлтан Назарбаев Түркі әлемінің Жоғарғы орденімен марапатталды. 15.10.2019. https://assembly.kz/news/n-rs-ltan-nazarbaev-t-rki-lemini-zho-ary-ordenimen-marapattaldy/?sphrase_id=24616864
24. Nursultan Nazarbayev awarded Supreme Order of the Turkic World. 15.10.2019. <https://assembly.kz/en/news/nursultan-nazarbayev-awarded-supreme-order-of-the-turkic-world/>
25. Nursulton Nazarboyevga Bokudagi sammitda Turk dunyosining oliy ordeni topshirildi. 16.10.2019. <https://daryo.uz/2019/10/16/nursulton-nazarboyevga-bokudagi-sammitda-turk-dunyosining-oliy-ordeni-topshirildi>
26. <https://turkicstates.org/assets/pdf/haberler/press-release-of-secretariat-of-the-organization-of-turkic-states-2399-102.pdf>
27. Ilhom Aliyev turkiy dunyoning Oliy ordeni bilan mukofotlandi. 12.11.2021. <https://perepost.uz/oz/news/95176>
28. Samarqand yana diqqat markazida: Chegaralar daxlsizligi va ichki ishlarga aralashmaslikka asoslangan tashkilot sammiti. 10.11.2022. <https://kun.uz/uz/news/2022/11/10/samarqand-yana-diqqat-markazida-chegaralar-daxlsizligi-va-ichki-ishlarga-aralashmaslikka-asoslangan-tashkilot-sammiti>
29. Erdog'an va Berdimuhamedov «Turkiy dunyoning oliy ordeni» bilan mukofotlandi. 11.11.2022. <https://zamon.uz/detail/erdogan-va-berdimuhamedov-turkiy-dunyoning-oliy-ordeni-bilan-mukofotlandi-eng-dolzarb>
30. Erdog'an va Berdimuhamedov «Turkiy dunyoning oliy ordeni» bilan mukofotlandi. 11.11.2022. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/11/orden/>
31. Erdog'an va Berdimuhamedov “Turkiy dunyoning oliy ordeni” bilan mukofotlandi. 11.11.2022. <https://oz.sputniknews.uz/20221111/erdogan-va-berdimuhamedov-turkiy-dunyoning-oliy-ordeni-bilan-mukofotlandi-29894756.html>
32. Mirziyoyev “Turkiy dunyo oliy ordeni” bilan mukofotlandi. 03.11.2023. <https://qalampir.uz/uz/news/mirziyeev-turkiy-dune-oliy-ordeni-mukofotlandi-92494>